



XORAZM VILOYATI HUDUDLARINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI

PhD, dots. **Ibadullayev Ergash**

Ma'mun universiteti

ORCID: 0000-0002-7059-2510

ergashibadullaev90@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati hududlarining tashqi savdo faoliyati chuqur tahlil qilingan, har bir hududning tashqi savdo imkoniyatlari, mavjud muammolari o'rganilgan va olingan natijalar asosida xulosa va takliflar berilga.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, eksport, import, hudud, Xorazm viloyati.

АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ РЕГИОНОВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

PhD, доц. **Ибадуллаев Эргаш**

Университет Маъмуна

Аннотация. В данной статье проведён глубокий анализ внешнеэкономической деятельности районов Хорезмской области. Изучены экспортные возможности и существующие проблемы каждого района, а также на основе полученных результатов представлены выводы и рекомендации.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт, импорт, регион, Хорезмская область.

ANALYSIS AND PROSPECTS OF FOREIGN TRADE OF THE REGIONS OF KHOREZM REGION

PhD, assoc. prof. **Ibadullayev Ergash**

Mamun University

Abstract. In this article, the foreign trade activities of the districts of Khorezm region have been thoroughly analyzed. The foreign trade potential and existing challenges of each district have been studied, and based on the findings, relevant conclusions and recommendations have been provided.

Keywords: foreign trade, export, import, district, Khorezm region.

Kirish.

Zamonaviy global iqtisodiyotda tashqi savdo mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy o'sishi, texnologik modernizatsiyasi va investitsion jozibadorligida muhim omil sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, tashqi savdo sohasini liberallashtirish, eksport salohiyatini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli choralalar ushbu yo'nalishdagi yondashuvlarning amaliy natijadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu boradagi yutuqlarga qaramay, mamlakat hududlari kesimida tashqi savdo faoliyatining holati va istiqbollari bo'yicha tahliliy yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmagani dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda (Ibadullayev, 2025).

Xususan, Xorazm viloyati o'zining strategik geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va turizm salohiyati bilan respublika tashqi savdo faoliyatida alohida o'ringa ega. Viloyatda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari, paxta, hunarmandchilik buyumlari va oziq-ovqat tovarlari xorijiy bozorlar uchun raqobatbardosh hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatning tuman va shaharlaridagi tashqi savdo hajmi, tovarlar tarkibi va geografik yo'nalishlari bo'yicha farqlar mavjud bo'lib, bu mahalliy darajadagi rivojlanish strategiyalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, Xorazm viloyatining tashqi iqtisodiy faoliyatida bir qator tizimli muammolar – logistik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi, mahsulotlar sertifikatlash va standartlashtirish bilan bog'liq to'siqlar, raqamli texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi – tashqi savdo samaradorligini cheklab kelmoqda (Suhud va boshq., 2025). Bu holat viloyat tumanlarining eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu maqolada Xorazm viloyatining tuman va shaharlar kesimidagi tashqi savdo faoliyati tahlil qilinadi. Asosiy eksport tovarlari, savdo sheriklari, hududlar kesimidagi farqlar, mavjud resurslar va tashqi savdoni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar chuqur o'rganiladi. Shuningdek, mintaqaviy darajada eksport salohiyatini oshirish yo'llari, hududlar ixtisoslashuviga asoslangan tashqi savdo strategiyalarini shakllantirish, zamonaviy raqamli va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorazm viloyatining tashqi savdo faoliyati va uning hududiy tahlili bo'yicha ilmiy izlanishlar umumiy iqtisodiy rivojlanish, eksport salohiyati, hududiy raqobat ustunligi va tashqi iqtisodiy aloqalar doirasida shakllangan. Mazkur mavzuni chuqur o'rganishda xorijiy manbalar bilan bir qatorda, ayniqsa Respublikamiz olimlarining va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tashqi savdo siyosatining nazariy asoslari, hududiy savdo oqimlari va raqobatbardoshlik modeli yuzasidan dunyo olimlaridan Krugman (2018) kabi mutaxassislarning ishlari asosiy nazariy yo'nalishni belgilab beradi. Xususan, Porterning "Raqobat ustunligi" nazariyasi hududlar eksport salohiyatini aniqlovchi klaster yondashuvga asoslangan bo'lib, bu uslub Xorazm viloyatining tumanlari kesimida eksport tarkibini tahlil qilishda muhim asos bo'ladi. O'zbekiston olimlari tomonidan so'nggi yillarda tashqi savdo va eksport masalalari bo'yicha qator muhim tadqiqotlar olib borilgan bo'lib jumladan Yo'ldoshev, Abdukarimov, Abdullayev kabi olimlar tomonidan viloyatlar kesimida tashqi savdo faoliyatining zamonaviy tendensiyalari, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish masalalari tahlil qilingan (Sobirov va boshq., 2024). Ularning ilmiy maqolalari va monografiyalarida eksport geografiyasini kengaytirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan tayyorlangan "Eksport salohiyatini hududlar kesimida baholash metodikasi" Xorazm viloyatining eksport tarkibiga nisbatan baho berishda qo'llanilmoqda.

Yana bir guruh respublikamiz olimlaridan Qayumov va Quدراتov (2020) kabi mualliflar o'z tadqiqotlarida O'zbekistonning mintaqaviy tashqi iqtisodiy faoliyatini baholashda tarmoq va hududlararo nomutanosibliklarni yoritib berishgan. Bu nomutanosiblik aynan Xorazm kabi chekka hududlarda yanada yaqqol namoyon bo'lishi alohida ta'kidlangan.

Yuqoridagilardan tashqari Bojxona instituti, Soliq akademiyasi, TDIU va boshqa ilmiy muassasalarda yozilgan magistrlik va PhD dissertatsiyalarda tashqi savdoga oid ilmiy yondashuvlar bilan birga, amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Xorazm viloyatiga oid mahalliy tadqiqotlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri tadqiqotlar soni nisbatan cheklangan bo'lsada, bir qator mualliflarning ilmiy ishlari mavzuga bevosita daxldor. Ibadullayevning (2021) "Xorazm viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari va istiqbollari" nomli ilmiy maqolasida viloyat tumanlari kesimida tashqi savdo dinamikasi, eksport tarmoqlari, asosiy mahsulot yo'nalishlari va bozorlar o'rganilgan. Muallif eksportda agrar mahsulotlar ustunligini va qayta ishlov darajasining pastligini asoslab bergan. Pardaeв, Yusupov, Matkarimov (2019) kabi olimlar tomonidan Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishida tashqi savdoning o'rni, savdo geografiyasini kengaytirish imkoniyatlari, bojxona siyosatining ta'siri masalalari yoritilgan. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, bojxona boshqarmasi hisobotlari asosida olib borilgan tahlillarda viloyat tumanlarining tashqi savdodagi o'ziga xosligi ochib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.


Ushbu tadqiqot ishida ikkilamchi ma'lumotlarning statistik tahlili, eksport samaradorligi ko'rsatkichlari indeksi, kuzatuvlar, nazariy tahlil, taqqoslash, sifat kontent tahlili kabi metodologik yondashuvlar va uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorazm viloyati hozirgi kunda mamlakatimizning eng muhim iqtisodiy hududlaridan hisoblanib 2024 yil yakunlariga ko'ra yalpi hududiy mahsulot 51261.1 mlrd so'mni tashkil qildi va o'tgan davrga nisbatan 6.4%ga oshgan. Xorazm viloyati mamlakat YaIMsida 3.5% ulushga egalik qilmoqda va o'tgan davrda iqtisodiyot tarmoqlari mos ravishda xizmatlar 3.0%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 1.1%, sanoat 1.2%, qurilish 0.9% va mahsulotlarga sof soliqlar 0.2% o'sgan. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 14 795,3 mlrd so'm miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 114,7 % ni, shundan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 8785,2 mlrd so'mni (jamiga nisbatan ulushi 59,2 %) tashkil etdi. 2024- yilning yanvar- dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko'pi, ya'ni 55,9 % viloyatning 4 ta hududi hissasiga to'g'ri keladi, jumladan, Urganch shahri 21,6 %, Urganch tumani 13,3 %, Qo'shko'pir tumani 13,2 %, Xiva tumani 7,8 %. Viloyatning ayrim tumanlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Xiva shahri 2,8 m. Gurlan tumani 205,6 %, Xiva tumani 128,7 %, Qo'shko'pir tumanida 122,3 %, ga o'sish kuzatildi (Xolmurotov va boshq., 2025). Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-dekabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 857,2 mln AQSH dollarini tashkil qildi va 2023- yilga nisbatan 24,0 mln AQSH dollariga yoki 2,7 % ga kamaydi.

Ushbu tadqiqot ishimizda viloyatning tashqi savdo aylanmasini aynan hududlar kesimida o'rganishni va shu tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilinganligi

sababli aynan birinchi navbatda tashqi savdo tahlillarini viloyatning hududlari kesimida ko'rib chiqdik (1-rasm).



**1-rasm. Xorazm viloyati hududlarining tashqi savdo aylanmasi
(2024-yil yanvar-dekabr oylari, mln AQSh dollarida)**

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek 2023-2024 yillarda viloyat hududlarida keskin o'zgarishlar yuzaga kelmagan, Xiva Shahar, Bog'ot, Gurlan, Hazorasp va Yangiariq tumanlarida nisbatan farqli o'zgarishlar mavjud bo'lsa, Urganch Shahar va Tuproqqal'a tumalari har ikkala yilda ham juda viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga egalik qilgan. Ushbu ikkita hudud 2024 yilda jami 399 million AQSh dollarlik eksport va import operatsiyalarini amalga oshirgan bo'lib bu viloyatning umumiy tashqi savdosiga nisbatan 46.5% ko'rsatkichni qayd qilgan, 2023 yilda esa 388.3 million dollar bilan jamiga nisbatan ushbu ikkita hudud 44% ko'rsatkich qayd qilgan (Ibadullaev va boshq., 2024).

Ushbu maqolamizda bir nechta usullardan foydalangan holda Xorazm viloyatining hududlarining tashqi savdo tahlilini amalga oshirdik. Hozirda viloyat geografik jihatdan jami 13ta hududdan, 2 ta shahar va 11 ta tumanlardan tashkil topgan bo'lib ularning tashqi savdo faoliyati tahlili quyidagicha ko'rinishda bo'ldi (1-jadval).

Jadval tahlillaridan ko'rinib turganidek viloyatning tashqi savdo hamkorlarida diversifikatsiya ancha sust bunga asosiy sabablardan bir bu logistika infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir.

Ko'pchilik hududlar o'zining eksport salohiyatidan to'la foydalana olmasligi ham asosiy muammolardan bir shu jumladan Xiva shahrining turistik potensialidan yanada yaxshi foydalanish uchun tashqi bozorlarda marketingni yanada kuchaytirish lozim (Yulduz va boshq., 2025).

Yangibozor, Bog'ot tumanlarida meva-sabzavotlar juda sifatli yetishtirilmoqda va ushbu mahsulotlar jahon bozorida bemalol raqobatga kirisha oladi ammo eksport infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan. Xonqa, Shovot kabi tumanlarda yirik qishloq xo'jaligi korxonalari mavjud va ushbu korxonalarda qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari bor bunga asosiy to'siq bu xorijiy investitsiyalarning sust jalb qilinishidir (Ibadullayev, 2021).

1-jadval

Xorazm viloyati hudularining eksport faoliyati tahlili

Hudud	Asosiy eksport mahsulotlari	Eksport yo'nalishlari	Imkoniyatlar	Muammolar
Urganch shahri	To'qimachilik, elektr texnika, oziq-ovqat	Rossiya, Qozog'iston, Xitoy	Yirik sanoat korxonalari, logistika markazi	Yangi bozorlarga chiqish imkoniyati cheklangan
Urganch tumani	Paxta, meva-sabzavot, to'qimachilik	Rossiya, Qirg'iziston	Agroklastlar rivojlangan	Sertifikatlash tizimi rivojlanmagan
Xiva shahri	Hunarmandchilik, xizmatlar (turizm eksporti)	Turkiya, BAA, Koreya	Turizm salohiyati kuchli	Tashqi reklama va brending yetarli emas
Xiva tumani	Poliz mahsulotlari, qo'lda ishlangan mahsulotlar	Rossiya, Qozog'iston	Turizm va agrar eksport integratsiyasi	Agrologistika infratuzilmasi zaif
Hazorasp tumani	Sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, sement	Qozog'iston, Afg'oniston	Erkin iqtisodiy zona faoliyati	Kichik eksportchi korxonalar soni kam
Gurlan tumani	Meva-sabzavot, paxta, quritilgan mevalar	Rossiya, Belarus, Qozog'iston	Sug'oriladigan yerlar ko'p	Qadoqlash va saqlash texnologiyalari yetishmaydi
Qo'shko'pir tumani	Sabzavot, g'alla mahsulotlari	Rossiya, Qozog'iston	Agrar salohiyat yuqori	Eksport uchun sertifikatlashtirish sust
Shovot tumani	Meva-sabzavot, paxta, poliz mahsulotlari	Tojikiston, Rossiya	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetarli	Sifat standarti va eksport tayyorgarligi past
Bog'ot tumani	Meva-sabzavot, qovun, poliz mahsulotlari	Rossiya, Qirg'iziston	Bog'dorchilik rivojlangan	Sovutkichli saqlash imkoniyatlari yetarli emas
Xonqa tumani	Paxta tolasi, sabzavot, qurilish materiallari	Rossiya, Xitoy	Yirik qishloq xo'jalik korxonalari mavjud	Tashqi savdo bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish yo'q
Yangibozor tumani	Meva-sabzavot, g'alla, qovun	Qozog'iston, Afg'oniston	Yengil sanoat rivojlanmoqda	Eksport infratuzilmasi sust
Yangiariq tumani	Paxta, sabzavot	Qozog'iston, Rossiya	Yer resurslari yetarli	Tashqi bozorlarda marketing yo'qligi
Tuproqqal'a tumani	G'alla, sabzavot, poliz mahsulotlari	Tojikiston, Qozog'iston	Meva-sabzavot yetishtirish uchun tabiiy sharoitlar yaxshi	Agroeksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni kam

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqorida amalga oshirgan tahlillarimizda kuzatilgan asosiy muammo va to'siqlarga quyidagi jadvalda o'z takliflarimizni ishlab chiqdi (2-jadval).

2-jadval

**Xorazm viloyati hududlari bo'yicha tashqi savdo muammolarini
bartaraf etish takliflari**

Hudud	Muammo	Taklif
Urganch shahri	Yangi bozorlarga chiqish imkoniyati cheklangan	Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan B2B formatdagi ko'rgazmalar va savdo forumlari tashkil etish
Urganch tumani	Sertifikatlash tizimi rivojlanmagan	Hududda xalqaro sertifikatlar beruvchi markazlar tashkil etish (ISO, Global G.A.P. va boshqalar.)
Xiva shahri	Tashqi reklama va brending yetarli emas	Hunarmandchilik mahsulotlariga milliy brend yaratish va digital marketingni rivojlantirish
Xiva tumani	Agrologistika infratuzilmasi zaif	Sovitkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash markazlarini qurish
Hazorasp tumani	Eksportchi korxonalar soni kam	Erkin iqtisodiy zonada eksportga yo'naltirilgan startaplarni subsidiyalash va rag'batlantirish
Gurlan tumani	Qadoqlash va saqlash texnologiyalari yetishmaydi	Qadoqlash texnologiyalari bo'yicha xorijiy investorlarni jalb qilish
Qo'shko'pir tumani	Eksport uchun sertifikatlashtirish sust	Mahalliy agro-eksportchilarga xalqaro standartlar bo'yicha trening va konsalting berish
Shovot tumani	Eksport tayyorgarligi past	Eksport oldi infratuzilmasi – logistika, eksport bo'yicha mutaxassis tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish
Bog'ot tumani	Sovitkichli saqlash imkoniyatlari yetarli emas	Kichik va o'rta fermerlar uchun kooperatsiya asosida sovutkich omborlarini yaratish
Xonqa tumani	Tashqi bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri chiqish yo'q	Ekspeditorlik xizmatlari, yirik logistika kompaniyalari bilan sheriklik o'rnatish
Yangibozor tumani	Eksport infratuzilmasi sust	Yo'llar, elektr energiyasi, ichki logistika tizimiga davlat investitsiyalarini yo'naltirish
Yangiariq tumani	Marketing yo'qligi	Elektron eksport platformalari, marketpleyslar orqali mahsulot sotuvini yo'lga qo'yish
Tuproqqal'a tumani	Korxonalar soni kam	Eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalarni imtiyozli kreditlar bilan qo'llab-quvvatlash

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu jadvalda keltirilgan takliflardan samarali foydalangan holda viloyatning hududlarida mavjud muammolarga nibatan yechim topish mumkun va bu holat o'z navbatida viloyat hududlarining tashqi savdo imkoniyatlarini yanada oshirish orqali viloyatning yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirishga va bu bilan axoli turmush faravonligining yaxshilanishi, ijtimoiy infratuzilmaning rivoj topishiga yo'l ochib beradi (Ibadullayev, 2025).

Xulosa va takliflar.

Xorazm viloyati hududlarining tashqi savdo faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, viloyat iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilgan segmenti turli hududlarda turlicha rivojlangan bo'lib, har bir hududning tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy imkoniyatlariga qarab tashqi savdo faoliyati shakllanmoqda. Viloyatning eksport salohiyati asosan qishloq xo'jaligi (meva-sabzavot, poliz mahsulotlari, paxta), to'qimachilik, qurilish materiallari, hunarmandchilik mahsulotlari hamda ayrim sanoat tarmoqlariga tayanadi. Urganch shahri va Hazorasp tumani sanoat mahsulotlari eksportida yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Gurlan, Bog'ot, Shovot, Qo'shko'pir tumanlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan eksport bozorida faol ishtirok etmoqda. Xiva shahri va tumani esa turizm eksporti va madaniy mahsulotlar orqali tashqi savdo faoliyatiga o'z hissasini qo'shmoqda. Shu bilan birga, tahlil natijalari viloyat hududlari tashqi savdosida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimining yetarli emasligi, agrologistika infratuzilmasining zaifligi, marketing va brending siyosatining sustligi, tashqi bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, eksportga ixtisoslashgan kichik va o'rta biznes subyektlarining soni kamligi kabi muammolar alohida ajralib turadi. Ayniqsa,

eksport oldi tayyorlov ishlari (qadoqlash, saralash, saqlash), transport-logistika xizmatlari, elektron savdo platformalaridan foydalanish kabi yo'nalishlar bo'yicha hududlar kesimida katta tafovutlar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish va tashqi savdoni hududlar kesimida yanada samarali tashkil etish uchun qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Bular jumlasiga har bir tumanning eksport salohiyatini inobatga olgan holda mintaqaviy eksport xaritalarini ishlab chiqish, logistika va infratuzilmani modernizatsiya qilish, xalqaro sertifikatlashtirish markazlarini tashkil etish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozli moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish, shuningdek, marketing va elektron savdoni rivojlantirish kiradi. Shuningdek, "Export Consulting Point" kabi maslahat markazlari tashkil etish, hududlararo kooperatsiyani kuchaytirish ham tashqi savdo faoliyatining barqaror rivojiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyati hududlarining tashqi savdo faoliyati iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayveri sifatida qaralishi zarur. Eksport imkoniyatlarini to'liq ishga solish orqali nafaqat mintaqaning iqtisodiy salohiyati oshiriladi, balki O'zbekistonning global savdo tizimidagi raqobatbardoshligi ham mustahkamlanadi. Shu sababli, har bir tuman va shahar kesimida tashqi savdo faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirish va strategik yondashuvlarni joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Fozil Xolmurotov, et al. (2025). *The impact of renewable energy consumption on unemployment rates in Uzbekistan: An ARDL approach*. *Environmental Economics*, 16(1), 78-88. doi:10.21511/ee.16(1).2025.06

Ibadullaev, E., et al. (2024). *Farmers attitudes on agritourism activity development in Uzbekistan: Khorezm region case study*. *Research on World Agricultural Economy*, 6(1), 435-451. <https://doi.org/10.36956/rwae.v6i1.1474>

Ibadullayev, E. (2021). *XORAZM VILOYATIDA TURISTIK-REKREATIONS XIZMATLARNING RIVOJLANISH HOLATI VA TAHLILI*. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 407-415.

Ibadullayev, E. (2021). *Xorazm viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari va ularni rivojlantirish yo'llari*. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 4(3), 45-52.

Ibadullayev, E. (2025). *Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida)*. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(4).

Ibadullayev, E. (2025). *Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida)*. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(4).

Krugman, P. R., Obstfeld, M., & Melitz, M. J. (2018). *International Economics: Theory and Policy* (11th ed.). Pearson Education.

Pardaev, M. Q., & Yusupov, S. S. (2019). *Xorazm viloyatining eksport salohiyatini oshirish omillari*. *Fan va taraqqiyot*, 1(2), 88-93.

Qayumov, A. A., & Qodirov, B. B. (2020). *O'zbekiston viloyatlari eksport salohiyatining kompleks baholash usullari*. *Iqtisodiyotni rivojlantirishda hududiy yondashuvlar*, 2(1), 63-69.

Sobirov, Y., et al. (2024), "The Nexus Between Women Employment and Tourism in Central Asia Countries: A Dynamic Panel Data Approach", Chen, J.S. (Ed.) *Advances in Hospitality and Leisure*, Volume 20 (*Advances in Hospitality and Leisure*, Vol. 20), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 55-78. <https://doi.org/10.1108/S1745-354220240000020004>

Suhud, U., et al. (2025). *Soundscapes of Loyalty: Modeling Revisit Intention in Ethnic Music Tourism within a Sustainable Tourism Framework*. *Journal of Posthumanism*, 5(5), 2467-2492.

Yulduz, Y., et al. (2025). *Impact of Energy Consumption on Agricultural Economics in Uzbekistan: An ARDL Approach*. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 15(3), 138-145. <https://doi.org/10.32479/ijeep.18120>